

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MUXIDDINOV NURIDDIN MUXIDDIN O‘G‘LI

PILLA QOBIG‘INI TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARINI SAQLASH USULINI
TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Muxiddinov Nuriddin Muxiddin o‘g‘li

Pilla qobig‘ini texnologik xususiyatlarini saqlash usulini
takomillashtirish..... 3

Муриддинов Нуриддин Муриддин угли

Совершенствование способа сохранения технологических свойств
коконной оболочки..... 23

Muxiddinov Nuriddin Muxiddin ugli

Improving the method of preserving the technological properties of the
cocoon shell 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 47

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MUXIDDINOV NURIDDIN MUXIDDIN O‘G‘LI

**PILLA QOBIG‘INI TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARINI SAQLASH USULINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T3492 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Islambekova Nigora Murtozayevna texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Matismailov Saypila Lalashbayevich texnika fanlari doktori, professor
	Raximov Akmal Alisherovich texnika fanlari falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «17» aprel soat «14⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Shohjahon ko'chasi, 5.tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (197-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «2» aprel kuni tarqatildi
(2024 yil «2» aprel kuni 197-raqamli reystr bayonnomasi).



X.X.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon to‘qimachilik sanoatida ipak ishlab chiqarish salmoqli o‘ringa ega bo‘lib, 20 dan ortiq mamlakatlarda pilla yetishtiriladi, 70 ga yaqin davlatlarda tabiiy ipakdan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ipakchilik rivojlangan chet el mamlakatlari Xitoy, Braziliya, Hindiston, Janubiy Koreya xom ipak ishlab chiqarish, qayta ishlash va yangi ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha ma‘lum yutuqlarga erishilgan bo‘lib, ularda to‘qimachilik sanoati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot raqobatbardoshligini ta‘minlash uchun texnologik jarayonlarni boshqarish usullarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan yuqori sifatli xom ipakni ishlab chiqarish uchun energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda xom ipak va ipak mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, zamonaviy takomillashgan texnologiyalarni yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan pilla qobig‘ini texnologik xususiyatlarini saqlash usulini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada yangi assortimentdagi xom ipak olish, eshilgan iplarni shakllantirishdagi parametrlarni o‘rnatish, ulardan izolyatsiya iplarini ishlab chiqarishni loyihalash kabi muammolarni yechish alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda tabiiy ipak xomashyosini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹, jumladan, “...qishloq xo‘jaligini xususan, pillachilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish, yetishtiriladigan pilla xomashyosi va tayyor ipak mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barabarga ko‘paytirish” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan pilla qobig‘ini texnologik xususiyatlarini saqlash usulini takomillashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28–yanvardagi PF-60-son “2022–2026–yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va 2017–yil 29–martdagi PQ-2856-son “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019–yil 31–iyuldagi PQ-4411-son “Ipakchilik tarmog‘ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020–yil 17–yanvardagi PQ-4567-son “Pillachilik tarmog‘ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida”Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yoʻnalishiga mos keladi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Pillani chuvish, undan sifatli xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, xom ipak ishlab chiqarishda yuqori talabga ega boʻlgan sifatli mahsulot ishlab chiqish masalalari boʻyicha bir qator xorijiy olimlar: G.Savvas, H.Harada, D.Rajat, G.Koshy, C.Minano, S.Gunze, S.Pan, H.Chen, J.Mo va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar. Tabiiy ipakning fizik-mexanik xususiyatlari va tuzilishini oʻrganish, xomashyoga texnologik suvning taʼsiri tadqiqoti, pillalarni qayta ishlashda SFM dan foydalanish, pillalarni chuvishga tayyorlash, chuvish texnologiyasi va sifatli xom ipak va tayyor mahsulotlar olish masalalari boʻyicha B.E.Geller, E.B.Rubinov, L.Y.Yunusov, X.A.Alimova, M.Z.Abdukarimova, I.Z.Burnashev, A.E.Gulamov, N.M.Islambekova va J.A.Axmedov kabi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shuni taʼkidlash joizki, pilla qobigʻiga taʼsir etuvchi turli zararkunandalardan zararlanish, saqlash davomiyligi ortgan sari eskirishidan himoyalashni, pilla qobigʻining suv oʻtkazuvchanligini yaxshilashda sirt-faol moddalarni qoʻllash texnologiyasini ishlab chiqish orqali uning xususiyatini oshirish, bugʻlash jarayonini yaxshilash, chuvilish darajasini oshirib, xomashyodan samarali foydalanish masalalari yetarli darajada oʻrganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi. Ilmiy tadqiqot ishi Toshkent toʻqimachilik va yengil sanoat institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №03/2023 “Pillalarning boshlangʻich xususiyatini saqlagan holda xom ipak sifatini oshirish” mavzusidagi xoʻjalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pilla qobigʻini texnologik xususiyatlarini saqlash usulini takomillashtirish, sifatli xom ipak ishlab chiqarishga erishishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pillalar qobigʻini texnologik xususiyatlarini saqlash imkoniyatini beruvchi usulni takomillashtirish;

quritish jarayonida pillaga SFM koʻpigi bilan ishlov berish uskunasi yaratish, texnologik parametrlarni asoslash;

SFM koʻpigi bilan ishlov berilgan pilla qobigʻini xususiyatlarini va olingan xom ipakni sifat koʻrsatkichlarini aniqlash;

SFM koʻpigi bilan ishlov berilgan pillalardan yangi assortimentdagi 2,56 tex li xom ipak olish parametrlarini oʻrnatish va xususiyatlarini aniqlash va undan tayyorlangan xom ashyodan oʻrish usuli bilan izolyatsiya iplarini namunalarini ishlab chiqarish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida Xitoy va mahalliy duragaylar tut ipak qurti pillasi, SFM eritmalari, SFM koʻpigi bilan ishlov berish uskunasi, 2,56 tex li xom ipak olingan.

Tadqiqotning predmeti SFM koʻpigi bilan ishlov berish va pillalarni quritish jarayonida yangi uskunani oʻrni, yangi assortimentdagi xom ipak olish va undan izolyatsiya iplari olish uchun xomashyo tayyorlash texnologiyasi.

Tadqiqotning usullari. Iplar mexanikasi, xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasi, tajriba tahlili va matematik statistika, sifat ko'rsatkichlarini aniqlashning standart usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pilla qobiqlarini texnologik xususiyatlarini saqlash imkoniyatini beruvchi sirt faol modda bilan ishlov berish asosida pilla chuvish jarayonidagi suv o'tkazuvchanlik, bo'kish va bug'lash ko'rsatkichlarini yaxshilash orqali takomillashtirilgan;

quritish jarayonida pillalarga sirt faol modda ko'pigi bilan ishlov berish uskunasi yaratilib, hosil qilingan ko'pik ko'rsatkichlari, ishlov berish va quritishdagi havo harorati, namligi hamda harakatlanish tezligining ratsional qiymatlari aniqlangan;

takomillashtirilgan usulda ishlov berilgan pillalardan olingan xom ipakni chiqishi va sifat ko'rsatkichlari xalqaro standartning 3A sinfi talablariga to'g'ri kelishi aniqlangan;

sirt faol moddalar ko'pigi bilan ishlov berilgan pillalardan ilk marotaba sifatli 2,56 tex xom ipak olinib, texnologik rejimlari o'rnatilgan, undan tayyorlangan xomashyodan o'rish usuli bilan izolyatsiya iplar namunalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pillalarga sirt faol modda ko'pigi bilan ishlov berish uskunasi yaratilgan;

respublikamizda ishlab chiqarilayotgan sirt-faol modda ko'pigidan foydalanib, pilla qobig'ini texnologik xususiyatlarini saqlash usuli takomillashtirilgan;

yangi assortimentdagi 2,56 tex li xom ipak ishlab chiqarish parametrlari o'rnatilib, ishlab chiqarishga joriy qilingan;

2,56 tex li xom ipakdan eshilgan ip namunalari ishlab chiqarildi va o'rilish usulida izolyatsiya iplari olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, eng avvalo, katta hajmdagi tajriba materiallarining statistikasi, olingan tajriba natijalarining boshqa tajriba natijalariga mos kelishi, statistik ishlov asosida tajriba natijalarining 95% advekatligi taminlanishi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tirik pillalardan foydalanib, ularga mahalliy sirt-faol modda ko'pigi bilan ishlov berib, quritilib chuvishga tayyorlashni ratsional rejimlarni ishlab chiqilganligi hamda pillalarni chuvib yangi assortimentdagi xom ipak va eshilgan iplarni ishlab chiqarishni asoslangan texnologiyasini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlarning amaliy ahamiyati sirt-faol modda ko'pigi bilan ishlov berilgan pillalarni chuvishga tayyorlash va chuvish texnologiyasini takomillashtirish, ularni joriy etish natijasida yuqori sifatli xom ipak olishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tut ipak qurti pillasi qobig'ini texnologik xususiyatini saqlash orqali pillalarini chuvish texnologiyasini yaratish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

pillaga ishlov berish uskunasi uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining foydali modelga patenti (№FAP02344) olingan. Natijada pilla qobig'ini texnologik xususiyatlarini saqlash imkonini bergan;

tavsiya etilgan takomillashtirilgan texnologiya “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tasarrufidagi korxonalarda, jumladan, Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi “XATIRCHI PILLA XAZINASI” xususiy korxonasida hamda Namangan viloyatining “FABRICTEX” MCHJda joriy etilgan (“O‘zbekipaksanoat” uyushmasining 2023–yil 10–apreldagi №:4-2/663-son malumotnomasi). Natijada, pilla quritgichga o‘rnatilgan sirt faol modda ko‘pigini hosil qilib beruvchi uskuna orqali pillalarga ishlov berib qobig‘ini texnologik xususiyatlarini saqlash jarayonini takomillashtirish orqali ularning xususiyatini pasayishini oldi olingan. Pillalarni chuvish jarayonidagi solishtirma sarfi 3,2 kg dan 2,8 kg gacha qisqartirilib bir kilogramm xom ipak ishlab chiqarish uchun ketadigan pilla xomashyosining sarfi 10–12% ga kamaytirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola nashr etilgan, shundan 3 ta maqola chet elda chop etilgan. 1 ta foydali model uchun patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsad va vazifalari belgilangan, uning obyekti va predmetini shakllantiradi, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligini ko‘rsatadi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qiladi, olingan natijalarning ishonchliligini asoslaydi, nazariy ochib beradi va olingan natijalarning amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda tatbiq etish, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy-texnik adabiyotlar sharhi va masalalarning qo‘yilishi”** deb nomlangan birinchi bobida tirik pillalarning quritish texnologiyasi, pilla chuvish texnologiyasi va ularni takomillashtirish asoslari, pillalarni saqlash davrida ta’sir etuvchi omillar va chuvish jarayonida yordamchi moddalardan foydalanish, tabiiy ipakdan tayyorlangan ip turlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari tahlil etildi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlandi.

Dissertatsiya ishining **“Pilla qobig‘ini texnologik xususiyatlarini saqlash usulini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida g‘umbakni jonsizlantirish usulini pillaning qobiq xususiyatlariga ta’siri, pilla duragaylari uchun quritish rejimlarini tanlash va sirt-faol modda ko‘pigi bilan ishlov berish usulini ishlab chiqish, pillaning xususiyatlarini xom ipak chiqishiga ta’siri, pilla sifatini yaxshi holatda saqlashda sirt faol moddalardan foydalanish yo‘llari, pilla qobig‘ini

boshlang'ich texnologik xususiyatini saqlash parametrlarini o'rnatish va pillaga ishlov berish uskunasi ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot ishlari keltirilgan.

Kimyoviy usul bilan jonsizlantirilganda hozirda ko'proq qo'llanilayotgan magnofos-66% tabletkalaridan keng foydalanildi. Bu tabletkalar orqali plyonka ostida dimlab g'umbak jonsizlantiriladi va soyali quritgichlarda quritiladi.

Jonsizlantirish usullarini pillaning chuviluvchanligi va fizik-mexanik xossalariga ta'siri o'rganildi (1-jadval).

1-jadval

Jonsizlantirish usullarini pillaning chuviluvchanligi va fizik-mexanik xossalariga ta'siri

№	Ko'rsatkichlar	Jonsizlantirish usullari		
		Bug' bilan	Issiq havo bilan	Kimyoviy
1	Pillalarning solishtirma sarfi, kg	3,28	3,12	2,9
2	7,5 min. davomida qaynatilgan pillalardan seritsinning erib chiqishi, %	6,12	6,07	6,05
3	Chuvaluvchanlik, %	68,3	70,3	71,0
4	Nisbiy uzilish kuchi, cN/tex	30,3	30,8	32,0
5	Uzilishgacha cho'zilish, %	18,6	20,3	21,6
6	Jipsligi, karetkaning yurish soni, dona	50	50	60

Kimyoviy usul bilan jonsizlantirilgan pillalarning texnologik xususiyatlari bug' va issiq havo bilan jonsizlantirishga nisbatan yaxshi ekanligi aniqlandi.

Pillalarning yaxshi chuvilishi bug'langanlik darajasiga bog'liq bo'lib, bug'langanlik esa o'z navbatida o'tkazuvchanlikka bog'liq bo'ladi. Tadqiqot ishida uch xil usulda jonsizlantirish va quritishning o'tkazuvchanlikka ta'siri o'rganildi (2-jadval).

2-jadval

Pillaning o'tkazuvchanlik xususiyatlariga jonsizlantirish usullarini ta'siri

Jonsizlantirish usullari	Havo o'tkazuvchanlik $\text{sm}^3/(\text{sm}^2 \cdot \text{s})$	Suv o'tkazuvchanlik $\text{ml}/(\text{sm}^2 \cdot \text{s})$	Shimilish, %
Bug' bilan	4,2	3,6	60,3
Issiq havo bilan	3,5	2,9	59,1
Kimyoviy	5,9	4,7	62,9

Namunalar barchasi g'ovakdorligi 72% bo'lgan, qalinligi 0,42 mm bo'lgan, quvvati 0,18 bo'lgan pillalar olindi. Chunki bu ko'rsatkichlarning barchasi o'tkazuvchanlik xususiyatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Barcha o'tkazuvchanlik xususiyatlari kimyoviy usul bilan jonsizlantirilgandagi pillalarda yaxshi bo'lib, boshqa usullarga nisbatan havo o'tkazuvchanlik 1,7–2,4 $\text{sm}^3/(\text{sm}^2 \cdot \text{s})$ ga, suv o'tkazuvchanlik 1,1–1,8 $\text{ml}/(\text{sm}^2 \cdot \text{s})$ ga va shimilish ko'rsatkichi 2,6–3,8 % ga ortiq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot ishida yakka pilla chuvish dastgohining bug'lash qozonlarida vaqtga bog'liq holda pillaning suv shimishi o'rganildi. Pillalar 30 sek davomida 98°C

haroratda bug'lab, so'ng 65°C haroratli vannada ikkinchi marta qayta ishlashdagi vannada saqlash davomiyligini chuvilishga ta'siri tadqiq etildi (3-jadval).

3-jadval

Pillani jonsizlantirish usullarini vaqt birligi ichida suvning shimilishiga ta'siri

Jonsizlantirish usullari va soyada quritish	Pillalar bug'langandan keyin 2-vannada suvning shimilish vaqti, sek	Pillalarga suvning shimilishi, %
Bug' bilan	10	48,2
	20	57,2
	30	66,7
	40	78,1
	60	84,2
Issiq havo bilan	10	45,2
	20	53,2
	30	61,3
	40	72,4
	60	80,0
Kimyoviy	10	62,0
	20	71,1
	30	78,7
	40	80,1
	60	88,7

Vaqt o'tishi bilan barcha jonsizlantirish usullarida suvning shimilishi ortib bordi. Tadqiqot ishida qurituvchi muhit harorati va namlikning pilla namligiga ta'siri aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Havo harorati va namligini pilla qobig'i namligiga ta'siri

Havo harorati, °C	Havo namligi, %						
	10	20	30	40	50	60	70
	Pilla qobig'i namligi, %						
20	5,2	5,3	6,2	7,6	8,1	9,7	10,1
40	4,2	4,6	5,4	6,8	7,6	8,3	9,5
60	2,7	3,6	4,5	5,7	6,4	7,6	8,3
80	1,8	2,7	3,6	4,7	5,2	6,5	7,6
100	1,3	2,1	2,7	3,5	4,3	5,6	6,3

Tadqiqot uchun mahalliy pilla duragaylari tanlab olindi. Havo harorati yuqori 80–100°C va namligi 30–40% bo'lganda pilla qobig'ining namligi 2,7–3,5 % bo'lib, bu pillaning qurib ketishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun pillaning namligini me'yorlangan namlikka yaqinlashtirish uchun havo namligini 70–80% da ushlab turish kerakligi aniqlandi.

Tadqiqot ishida pilla quritish davomiyligini pilla qobig'i namligiga ta'siri o'rganildi (5-jadval).

Havo harorati 110°C ga ko'tarilganda ishlov berish davomiyligi 150 dan 210 minutga o'zgarishi pilla namligini 17,1% dan 10,3% ga kamaytirdi. Shu ishlov

berish rejimi pillani me'yorlangan namlikka olib keldi. Havo harorati 120°C da esa pilla namligining qurib ketishiga olib keldi.

5-jadval

Quritish harorati va davomiyligining pilla qobig'ining namligiga ta'siri

Ishlov berishga kirishda		Quritgichdagi ishlov berish rejimi		Ishlov berishdan keyin	
Pilla namlik, %	Qobiq namlik, %	Havo harorati, °C	Ishlov berish davomiyligi, min	Pilla namlik, %	Qobiq namlik, %
158	11,2	110	150	17,1	3,9
169	11,4	110	210	10,3	3,3
163	10,2	120	150	9,7	3,1
161	10,8	120	210	7,9	2,9

Ko'p ilmiy tadqiqot ishlarida pillalarning chuvilishini oshirishda sirt faol moddadan eritmalar tayyorlab, bu eritmalar bilan ishlov berishni pilla chuvish korxonalarida pillalarni chuvishga tayyorlash jarayonlarida qo'llab kelingan. Bunday usullarni xom ipak chiqishining oshishiga olib kelishi bilan bir qatorda ishlov berish maydonini va ishlov berilgandan keyin saqlash imkoniyatini yo'qligi uning kamchiligi hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot ishini maqsadidan kelib chiqqan holda tirik pillalarni dastlabki ishlash jarayonlarida pillalarga ishlov berib, quritishdagi namligi va ishlov berishning xom ipak chiqishiga ta'siri o'rganildi (6-jadval).

6-jadval

SFM bilan ishlov berilgan pillalarning quritilgandagi namligi va xom ipak chiqishi tadqiqoti (0,9 m/sek havo tezligida)

Quritish rejimi	Kirishdagi havo harorati, °C	Konveyer tezligi, m/s	Namlik, %				Xom ipak chiqishi, %	Pilla ipining uzl. chuv. uzunligi, m
			Quritishdan oldin		Quritishdan keyin			
			Pilla	Qobiq	Pilla	Qobiq		
Yarim quritish	90	16,1	170,4	11,7	31/31	5,36/5,42	28,95/29,5	617/685
	100	14,5	175,2	12,3	28/28	4,90/4,95	27,64/28,13	570/640
	110	12,5	178,3	10,3	30/31	5,2/5,28	29,04/29,56	510/585
To'liq quritish	90	6,31	171,3	9,2	12/12	5,5/5,55	24,73/25,18	390/455
	100	6,60	176,1	12,6	13/13	4,7/4,72	25,63/26,09	387/440
	110	6,96	174,9	10,7	10/11	3,9/3,96	26,7/27,18	373/430

Izoh: Sur'atda nazorat pillalar, mahrajda sirt-faol modda ko'pigi bilan ishlov berilgan pillalar ko'rsatkichi.

Yarim quritishda va to'liq quritishda konveyer harakatining tezligi ortib borishi, pillada ortiqcha namlik qolayotganini ko'rsatdi. Bunda havo tezligi 0,9 m/s ni tashkil qildi. Albatta bu yerda quritish haroratini inobatga olish kerak. Yarim quritishda kirishdagi havo harorati 90 dan 110°C gacha o'zgartirib borilganda pilla namligi 31–27% ga pasayganligini ko'rishimiz mumkin. To'liq quritilganda esa 12–10% ga pasaygani kuzatildi. Lekin ikkala holda ham pilla qobig'i qurib ketdi. Yarim quritishda qobiq namligi haroratga bog'liq holda 3,36 dan 5,2 % ga o'zgargan bo'lsa, to'liq quritishda 5,5 dan 3,9 % ga o'zgardi. Harorat oshishi ikkala holda ham uzluksiz

chuvaluvchan uzunlikni pasayishiga, xususan yarim quritilganda harorat 90 dan 110°C ga ko'tarilganda uzluksiz chuvaluvchan uzunligi nazoratda 617 dan 510 metrgacha pasaydi, to'liq quritilganda 390 dan 373 metrga pasayganini ko'rishimiz mumkin. Sirt-faol modda bilan ishlov berish natijasida qobiq qurib ketishi kamaydi, xom ipak chiqish miqdori va uzluksiz chuvaluvchan uzunlik ortdi. Tadqiqot ishida pillalarga sirt-faol modda eritmasi va ko'pigi bilan ishlov berilganda pillaning nav ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi (7-jadval).

7-jadval

Sirt-faol modda bilan ishlov berilgandan keyin navlar bo'yicha pillalarni chiqishi

Pilla navlari	Nazorat, %	SFM ko'pigi bilan ishlov berilgan,%	SFM eritmasi bilan ishlov berilgan,%
1-nav	60,9	62,3	59,8
2-nav	18	18,2	17,1
navsiz(dog'li)	18	16,4	20,4
nostandart	3,1	3,1	3,1

Sirt-faol modda eritmasi bilan ishlov berilganda nazoratga nisbatan I nav pillalar 1,1% ga kamayganini ko'rishimiz mumkin. Ko'pik bilan ishlov berilganda esa 1,4 % ga ortganini ko'rishimiz mumkin. Nazoratga nisbatan sirt-faol modda eritmasi bilan ishlov berilganda dog'li pillalar ko'payishi hisobiga navli pillalar kamayishi sodir bo'ldi. Ko'pik bilan ishlov berilganda esa dog'li pillalar nazoratga nisbatan 1,6% ga kamaydi.

Kalibr ortib borishi bilan pilla ipining umumiy uzunligi, o'rtacha 665 m ni tashkil qildi. Pilla chuvishda muhim ko'rsatkichlardan bo'lgan uzluksiz chuvaluvchan uzunlik esa o'rtacha 523 m ni tashkil qildi (8-jadval).

8-jadval

Pilla kalibrini xom ipak chiqishiga bog'liqligi

Kalibr, mm	Pilla ipi	Pilla losi	Qaznoq po'sti	G'umbak	Ipak mahsulotlari, %	Pilla ipining uzunligi,m	
	%	%	%	%		Umumiy (L)	Uzluksiz (l _{u.u.})
10	37,0	2,9	3,7	43,7	43,6	487,5	243,75
11	36,6	3,3	3,5	42,9	43,5	594,5	297,25
12	37,7	4,3	3,5	48,5	45,55	617,5	308,75
13	40,9	3,0	3,35	45,4	47,3	751,5	751,5
14	39,9	3,5	3,65	47,4	47,1	744	744
15	39,1	4,9	3,65	48,2	47,7	794,5	794,5
12,5	38,5	3,6	3,55	46,02	45,6	665	523,2

Bu ko'rsatkich 13–15-kalibrlarda yaxshi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Kalibrga bog'liq holda ipak chiqishi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar aniqlandi. 10-12 kalibrlarda 36,6–37,7% gacha ipak chiqqan bo'lsa, 13–15 kalibrlarda 39,1–40,9% ni tashkil qildi.

Tadqiqot ishida pillalarning namlanishiga saqlash vaqtining ta'sirini o'rgandik (9-jadval). Pillalarni ikki guruhga bo'lib, yarmi natriy lauret sulfatning 0,3%li

eritmasi ko'pigi bilan ishlov berilib, qolganlari ishlov berilmagan holda SK-150-K pilla quritgichida quritib olinib, so'ng 9 oy muddatga saqlashga qo'yildi. Har 3 oyda pillalarning namlanish burchagi tekshirib borildi.

9-jadval

Saqlash davrida pillalarning namlanishini o'zgarishi (namlanish burchagi, grad.)

Saqlash vaqti	0	3 oy	6 oy	9oy
Ishlov berilmagan pillalar	107	119	125	130
Natriy lauret sulfat 0,3% li eritmasi ko'pigi bilan ishlov berilgan pillalar	45	45	47	50

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, 6 oy mobaynida saqlangan ishlov berilmagan pillalarning namlanuvchanligi yomonlashib borganligi, ishlov berilgan pillalarning namlanishi esa vaqt o'tishi bilan ham yaxshi ekanligi kuzatildi. Bu esa vaqt o'tishi bilan pillalarni eskirmasdan uzoq muddat saqlash imkonini beradi. Pillalar yaxshi bug'lanishi uchun suv o'tkazuvchanlik darajasi ham yaxshi bo'lishi kerak. Tadqiqot ishida natriy lauret sulfatni pillalarning suv o'tkazuvchanligiga ta'sirini o'rganildi.

Olingan natijalarga asoslangan holda natriy lauret sulfatni 0,3% li eritmasidan hosil qilingan ko'pigi bilan pillalarga ishlov berilib, saqlash davrini chuvilish ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi (10-jadval).

10-jadval

Pilladan xom-ipak chiqishida saqlash vaqtining ta'siri

Pillalar	Saqlash vaqti	Xom-ipak,%	Los,%	Qaznoq,%	Solishtirma sarfi, kg	Ipak mahsulotlari, %
Ishlov berilmagan	0 oy	31,6	6,3	6,8	3,0	44,70
	3 oy	30,8	6,4	7,1	3,0	44,38
	6 oy	28,1	9,3	8,22	3,1	45,60
	9 oy	27,1	9,7	8,26	3,2	45,06
SFM ko'pigi bilan ishlov berilgan	0 oy	34,9	5,9	5,6	2,81	46,4
	3 oy	34,0	6,8	5,7	2,85	46,5
	6 oy	33,8	6,9	5,8	2,88	46,5
	9 oy	33,8	6,7	6,1	2,87	46,5

Saqlash natijasida 6 oydan keyin 3,5% ga 9 oydan keyin 4,5% ga xom ipak chiqishi pasayishi kuzatilgan. Demak, olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, ishlov berilmagan pillalarda vaqt o'tishi bilan ipak chiqish miqdori pasayib ketmoqda. Vaqt o'tishi bilan pillalar sirtidagi seritsinning konformatsion o'zgarishi natijasida molekular gidrofob holatga o'tib, namlanuvchanlik darajasi va suv o'tkazuvchanligi yomonlashib borib, bug'lash davrida yaxshi bug'lanmay, uzilishlar ko'payib, ipak chiqish miqdori kamayib ketdi. Modda ko'pigi bilan ishlov berilgan pillalar esa vaqt o'tishi bilan ham o'z fizik-kimyoviy xususiyatini yo'qotmadi va shuning hisobiga ipak chiqish miqdori vaqt o'tishi bilan ham bir xilda saqlanganligi kuzatildi.

Pilla chuvib olish deganda ko'p miqdorda ipak ajratib olish bilan bir qatorda sifatli mahsulot ishlab chiqarish tushuniladi. Ishlatilgan sirt-faol moddaning ipak sifatiga ta'siri o'rganildi. Pilla chuvib olishdagi barcha rejimlar texnologik karta asosida bajarildi. Saqlash vaqtini chuvishga ta'sirini o'rganish asosida chuvib olingan xom-ipakning ayrim sifat ko'rsatkichlari aniqlandi (11-jadval).

11-jadval

Xom ipakning sifat ko'rsatkichlari

№	Sifat ko'rsatkichi	O'zDst 3313-2018	Tajriba
1.	Chiziqli zichligi, tex	2,33	2,33
2.	Chiziqli zichligi bo'yicha og'ishi, tex	0,22	0,18
3.	Notekisligi	210	210
4.	Yirik nuqsonlardan tozaligi, % kamida	88	89
5.	Mayda nuqsonlardan tozaligi, % kamida	87	90
6.	Qayta o'ralish qobilyati, uzilishlar soni	18	10
7.	Nisbiy o'zuvchi kuchi, cN/tex	38	38
8.	Nisbiy uzilishdagi cho'zilishi, %	19	20
9.	Jipsligi, karetkaning yurish soni, dona	72	70


Chuvib olingan xom ipak namunasi O'zDst 3313–2018 standarti bo'yicha baholandi. Nazoratga nisbatan tajriba natijalari solishtirilganda ko'rsatkichlar yomonlashmagani, hattoki mayda nuqsonlari bo'yicha tozaligi va qayta o'rash qobiliyati yaxshilanganligi kuzatildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, pillalarga ishlov berilgan modda, xom ipakning sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmas ekan. Shu bilan birga chiqindilarni kamaytirib, xom ipak miqdori ortishiga yordam berdi.

Pillalar mavsumiy mahsulot bo'lib, yil davomida ularni qayta ishlash uchun g'umbak jonsizlantiriladi va quritiladi. Bunga asosiy sabab, g'umbak kapalakka aylanib pillani teshib qo'ymasligi va saqlash davomida mog'orlab qolmasligining oldini olishdir. O'zbekistonda bir qator g'umbakni jonsizlantirish usullaridan foydalaniladi. Ular orasida eng ko'p korxonalarda qo'llaniladigan usul issiq havo bilan jonsizlantirish usuli hisoblanadi. Pillalarni dastlabki ishlash bazalaridagi quritgichlar ana shunday jonsizlantirib quritish usuliga asoslangan. Quritishda asosan pilladagi erkin namlik yuqotiladi. Quritilgan pillalarning fizik-mexanik xususiyati tirik pillanikiga nisbatan kamayadi. Lekin pilla mavsumiy mahsulot bo'lganligi sababli, yil davomida saqlash kerakligini inobatga olgan holda jonsizlantirish va quritish usulidan kechib bo'lmaydi. Shuning uchun, sirt faol moddaning suvli eritmasini pilla chuvishda qo'llash orqali suvning sirt tarangligini kamaytirib, pilla qobig'i qatlamlariga suvning faol kirishini ta'minlab, pillalarning bir tekis bug'lanishiga erishildi.

Tadqiqot ishining asosiy vazifasi pillani dastlabki ishlash bazalarida quritgichga kirishdan oldin tirik pillalarni 0,1–0,3 g/l sirt faol modda ko'pigi bilan ishlov berib, SK-150-K dastgohida quritishdan iborat. Pillaga ishlov berish uskunasi

quritgichning saralash stolidan keyin konveyer yuqorisiga o'rnatilgan bo'lib, konveyerda harakatlanib kelayotgan pillalar qurilmada hosil qilingan ko'pik bilan ishlov beriladi.

Pillaga ishlov berish uskunasi SK-150-K dastgohining saralash konveyeri yuqorisiga o'rnatilgan bo'lib, rezervuardagi 1 eritma dozator 2 orqali ko'pik hosil qilish qismiga 3 yuboriladi. U yerdagi parrak 4 harakatlanib SFM eritmasidan ko'pik hosil qiladi. Hosil bo'lgan ko'pik, uskunaning ikki yonidan ochilgan nov 5 orqali konveyerda harakatlanib kelayotgan pillalar ustiga sepish orqali ishlov berilib, so'ng quritish kamerasida o'rnatilgan rejim bo'yicha quritib olinadi. Ko'pik hosil qiluvchi parrakni harakatga keltiruvchi val 7 harakatni 6 dvigateldan oladi (1-rasm).



1-rasm. Pillalarga ishlov berish uskunasining konstruktiv chizmasi: a) SK-150-K dastgohida uskuna joylashuvi. b) pillalarga ishlov berish uskunasi d) ko'pik hosil qiluvchi shotka

Tavsiya etilayotgan uskuna pillani dastlabki ishlash bazasiga o'rnatilgan qurilma bilan pillalarga ishlov berish orqali, ularni eskirishidan himoya qilinib, dastlabki xususiyati saqlanadi. Saralash jarayonida los chiqish miqdori kamayadi. Pilla chuvish korxonalarida sirt-faol modda bilan ishlov berishga nisbatan xom ipak chiqish miqdori 3–5% ga ortib, uzilishlar miqdori kamayishiga erishiladi.

Dissertasiya ishining **“Tabiiy ipakdan izolyatsiya iplarini ishlab chiqarish texnologiyasi”** deb nomlangan uchinchi bobida 2,56 tex assortimentdagi xom ipak olish texnologiyasi va ishlab chiqarish parametrlarini o'rnatish, charxga o'ralgan ipning tarangligini g'altakka qayta o'rash ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganish, 2,56 tex li xom ipakni qayta o'rashga tayyorlash, qayta o'rash, cho'zilishdagi deformatsiyasi hamda qattiqligini aniqlash, ipakdan o'rilgan izolyatsiya iplarini loyihalash, tabiiy ipakdan izolyatsiya iplarini ishlab chiqarish uchun xomashyoni tayyorlash, o'rilish usuli bilan izolyatsiya ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishida yangi assortimentdagi mahsulot turini ko'paytirish vazifasi uni bajarish uchun yangi assortimentdagi xom ipak olish maqsad qilib olindi. Yangi assortimentdagi xom ipak ishlab chiqarish uchun olingan pillalarning xususiyatlari aniqlab olindi (12-jadval).

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ikkala duragay pillalarning shakli oval bo'lib, qattiqligi 2,1–2,3 mm ekan. Ahamiyatli jihati Xitoy duragay pillalarining 82% mayda kalibrni tashkil qilsa, mahalliy pillalarning 60% ini o'rta kalibrlar tashkil qildi.

Xitoy va mahalliy duragay pillalar xususiyati


Pilla duragayi	Pilla vazni, mg	Pilla kalibri miqdori,%			Donadorlik, ta	Qattiqligi, mm	Shakli
		mayda	o'rta	yirik			
Xitoy	0,470	82	18	-	50	2,3	Oval
Mahalliy	0,560	32	60	8	48	2,1	Oval

Pilla kalibrining pilla chuvish ko'rsatkichlariga ta'siri aniqlandi (13–14-jadval 2-rasm).

Kalibrlar bo'yicha pilla chuvish natijalari

Pilla kalibri	Chiziqli zichligi, tex	Chiziqli zichlik bo'yicha og'ishi, %	Yirik nuqsonlar bo'yicha tozaligi,%	Mayda nuqsonlar bo'yicha tozaligi,%	Yangi bug'langan pillalardan yakka uch chiqish miqdori,%
	Pilla ipi				
Mayda	0,22	0,01	95	92	70
O'rta	0,26	0,02	96	92	70
Yirik	0,32	0,00	93	90	66
O'ta yirik	0,36	0,03	85	87	60

Olingan natijalar pilla kalibrining chiziqli zichlikka bog'liqligini ko'rsatdi. Tadqiqot uchun o'rta kalibr olinishi 2,56 tex li xom ipak olish uchun 9–10 ta pilla dasta ostiga bo'lishini ko'rsatdi. Yakka uchini chiqish miqdori, mayda va yirik nuqsonlardan tozaligi mayda va o'rta kalibrlarda yaxshi ekani aniqlandi.



2-rasm. Pilla ipi chiziqli zichligini kalibrlar bo'yicha umumiy uzunligining o'zgarishi

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, xom ipak miqdori 36 % ni tashkil etdi. Pillalar bir tekis bug'langanligi sababli pillalardan xom ipak chiqishi oson kechib, muqobil chuvish tezligi 129 m/min ni tashkil qildi.

14-jadval

Chuvib olingan xom ipakning texnik ko'rsatkichlari

№	Chuvish va xom ipak olishdagi texnik ko'rsatkichlar	Qiymatlar
1	Dastgohdagi pilla chuvish tezligi, m/min	90
2	Charxga o'ralayotgan ipning umumiy uzunligi, m	900
3	Ilgich ostidagi o'rtacha pillalar soni, dona	6,81
4	Uzluksiz chuvaluvchan uzunlik, m	659
5	Muqobil chuvish tezligi, m/min	129
6	Pillaning solishtirma sarfi, kg	2,9
7	Xom ipakning chiziqli zichligi, tex	2,56
8	Pilla ipining chiziqli zichligi, tex	0,26
9	Xom ipak chiqish miqdori, %	36

Pilla chuvish mashinalari asosan 2,33 va 3,23 tex dagi xom ipak olish uchun mo'ljallangan nazorat apparati datchigi bilan jihozlangan bo'lib, shu nazorat apparatlaridan foydalangan holda 2,56 tex li xom ipak ishlab chiqarildi. Bu chiziqli zichlikni chiqarish uchun guruh bo'yicha rostdash zanjiri orqali amalga oshirildi. Tadqiqot o'tkazib berilgan chiziqli zichlikni guruh bo'yicha rostdab, richagni qanchagacha ko'tarish mumkinligini aniqlandi (15-jadval).

15-jadval

Guruhlab rostdashdagi shkala ko'rsatkichlari aniqlash

№	Chiziqli zichlik, tex	Dasta tagidagi pillalar soni		Guruhlab rostdashdagi shkala ko'rsatkichi	
		Xitoy duragayi	Mahalliy duragay	Xitoy duragayi	Mahalliy duragay
1	2,56	9	9	7	7
		8	8	10	10
		7	7	12	12
2	2,33	8	8	10	10
		7	7	12	12
		6	6	13	13
3	3,23	12	12	15	15
		11	11	16	16
		10	10	17	17
4	4,65	18	18	20	20
		19	19	21	21
		20	20	22	22

Pilla chuvish avtomatlarida pilla iplaridan xom ipak shakllanayotganda ma'lum sabablarga ko'ra pilla iplarining uzilishi sodir bo'ladi. Ularni ilgich va taminlagichlar yordamida qo'shib yuboriladi.


Tadqiqot o'tkazib berilgan chiziqli zichlikni guruh bo'yicha rostdab, richagni qanchagacha ko'tarish mumkinligini aniqlandi. Dastlab guruh bo'yicha rostdash shkala ko'rsatkichi 5–belgiga qo'yiladi. Dasta tagiga tashlanadigan pillalar aniqlab, berilgan chiziqli zichlik bilan taqqoslanadi. Berilgan chiziqli zichlikka keltirish uchun umumiy rostdagich richagini burab shkaladagi sonni ko'paytiramiz. Shkaladagi har bir bo'limcha chiziqli zichlikni 0,02 dan 0,04 teksgacha o'zgartiradi.

Jadvalda vaqt birligi ichida ishlov berilgan va berilmagan pillalardagi uzuqlar miqdori matematik qayta ishlash uchun regressiya tahlili usuli qoʻllanildi. 16-jadvalda berilgan quyidagi qiymatlardan foydalanamiz.

16-jadval

